

**Qishloq xo'jaligi vazirligi, hududiy va tarkibiy tuzilmalar faoliyatida
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash**

USLUBIYOTI

Mazkur Uslubiyot Qishloq xo'jaligi vazirligi (keyingi matnlarda – Vazirlik), vazirlikning hududiy va tarkibiy tuzilmalari (keyingi matnlarda – Tuzilma) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Vazirlik va Tuzilma faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Vazirlik va Tuzilmaning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati;

korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatar — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi — Vazirlik va Tuzilma faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni

(jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralari amalga oshirishga mas'ul ijrochilarni o'z ichiga olgan hujjat;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash — Vazirlik va Tuzilma faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

qoldiq xavf-xatar — aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bo'linma — Vazirlik va Tuzilmadagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi;

ishchi guruh — korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mavjud bo'lmagan Tuzilmada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

4. Vazirlik tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni umumiy baholash har yili 1-martga qadar, Tuzilma tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili 5-fevralga qadar amalga oshiriladi.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish

5. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Vazirlik va Tuzilma faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo'linma yoki ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirlik va Tuzilmaning tegishli tarkibiy bo'linmalari maxsus bo'linma (ishchi guruhi) bilan hamkorlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda ishtirok etadi.

6. Ishchi guruhi a'zolari Tuzilmaning tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Tuzilmaning birinchi rahbari tomonidan ishchi guruhi tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

7. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda Vazirlik markaziy apparatining maxsus bo'linmasi tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

Tuzilma tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ko'rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

8. Tuzilmadagi maxsus bo'linma (ishchi guruhi) quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Tuzilmada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;

Tuzilmada korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ishlab chiqish.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi

9. Maxsus bo'linma (ishchi guruhi) tomonidan Vazirlik va Tuzilma faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

10. Vazirlik va Tuzilma faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

11. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Vazirlik va Tuzilma faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi; ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruvi materiallari;

odob-axloq komissiyasi majlislarining yig'ilish bayonnomalari;

korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

maxsus bo'linma (ishchi guruh) tomonidan Vazirlik va Tuzilma faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

12. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Vazirlik va Tuzilma faoliyati to'g'risidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar (xabarlar) va statistik ma'lumotlar;

Boshqa davlat tashkilotlari tomonidan Vazirlik va Tuzilma faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

13. Maxsus bo'linma (ishchi guruhi) Vazirlik va Tuzilmaning faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashida quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

Vazirlik va Tuzilmaning xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik;

Vazirlik va Tuzilma tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;
hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

14. Vazirlik va Tuzilma faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o'lchovlarda baholanadi:

past

o'rta;

yuqori.

15. Vazirlik va Tuzilmaning maxsus bo'linmasi (ishchi guruhi) tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish hamda Vazirlik va Tuzilma faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

Vazirlik va Tuzilma faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari ko'rish;

Vazirlik va Tuzilma xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida Vazirlik va Tuzilma tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

Vazirlik va Tuzilma tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Vazirlik va Tuzilma korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha mazkur Uslubiyotning 16-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

19. Vazirlik markaziy apparatining maxsus bo'linmasi tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda markaziy apparatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi.

19. Tuzilmaning maxsus bo'linmasi (ishchi guruhi) tomonidan ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalari ishlab chiqiladi.

Bunda, Tuzilmaning maxsus bo'linmasi (ishchi guruhi) tomonidan ishlab chiqilgan mazkur loyihalar har yili 1-yanvarga qadar Vazirlikning maxsus bo'linmasiga umumlashtirish uchun taqdim qilinadi.

20. Vazirlik markaziy apparatining maxsus bo'linmasi tomonidan Vazirlik va Tuzilma faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida Vazirlik va Tuzilmaning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi.

21. Vazirlik markaziy apparatining maxsus bo'linmasi korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan quyidagi hujjatlar shakllantiradi:

Vazirlik va Tuzilmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi;

Vazirlik va Tuzilmaning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlari ro'yxati.

6-bob. Yakuniy qoidalar

22. Mazkur Uslubiyot talablari Vazirlik va Tuzilmaning barcha bo'linmalari tomonidan ijro etilishi majburiy hisoblanadi.

23. Mazkur Uslubiyot talblarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Qishloq xo'jaligi vazirligi, hududiy va tarkibiy tuzilmalar
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash va baholash uslubiyotiga
1-ILOVA

Tashkilot faoliyatining (vazifa va funksiyalarining)
TAVSIFI

T/r	Funksiya nomlanishi	Funksiya doirasida bajariladigan jarayon	Jarayonlarni amalga oshirish uchun javobgar shaxslar (uning F.I.O. hamda lavozimi)
1. Tashkilotning nomi			
1.1. Tashkilotning tarkibiy bo'linmasi			
1.1.1.			

* Tashkilot deganda Vazirlik va Tuzilma tushuniladi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi, hududiy va tarkibiy tuzilmalar
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash va baholash uslubiyotiga
2-ILOVA

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo'yicha

MEZONLAR

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori*	Tashkilot faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	Tashkilotning faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	Nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Tashkilotning faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	Tashkilotning faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O'rta*	Tashkilotning faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	Tashkilotning faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	Nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Tashkilotning faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	Tashkilotning faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past**	Tashkilotning faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq avtomatlashtirilgan
	Tashkilotning faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq tartibga solingan
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	Tashkilotning faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	Korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud emas

*Maxsus bo'linma (ishchi guruh) tomonidan Vazirlik yoki Tuzilmaning faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarning yuqori yoki o'rta darajada deb baholashi Vazirlik miqyosida Vazirlik rahbariyati bilan, Tuzilma miqyosida Tuzilma rahbariyati bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

** Vazirlik yoki Tuzilmaning faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo'lsa, o'sha korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past darajada deb baholanadi.

*** Tashkilot deganda Vazirlik va Tuzilma tushuniladi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi, hududiy va tarkibiy tuzilmalar
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash va baholash uslubiyotiga
3-ILOVA

“TASDIQLAYMAN”

Tashkilot rahbari

F.I.O.

“ ” yil

**Tashkilotning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning
XARITASI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, o'rta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o'rta, yuqori)	Mas'ul ijrochilar
	1. Tashkilotning tarkibiy bo'linmasining nomi:						
1.	1. Tashkilotning funksiyasi nomi:						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi:						
	1. Jarayon nomi:						
	2. Jarayon nomi:						
	2. Tashkilotning tarkibiy bo'linmasining nomi*						
2.	2. Tashkilotning funksiyasi nomi:						
	2. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						

* Tashkilot deganda Vazirlik va Tuzilma tushuniladi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi, hududiy va tarkibiy tuzilmalar
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash va baholash uslubiyotiga
4-ILOVA

**Tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf- xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
------------	---	--------------------------------------	---------------------	-----------------------------

* Tashkilot deganda Vazirlik va Tuzilma tushuniladi.